

## BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Negova Marjona Sanjar qizi

Toshkent Menejment Va Kommunikatsiya Insitituti Talabasi

Elektron pochta: [marjonanegova777@gmail.com](mailto:marjonanegova777@gmail.com)

Tel nomer: +998(94) 708 80 39

### ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari, shuningdek, nutq o'stirishning metodik shartlari borasida ma'lumotlar keltiriladi. Ona tilini namunalar va maxsus mashqlar asosida amaliy, muntazam va izchil o'rgatish orqali adabiy-badiiy nutq shaklini shakllantirib borishni taqozo qiladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqotga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tarbiya, talaba-yoshlar, nutq, qobiliyat, ijodkorlik, muloqot, kognitivlik, kommunikativlik, xotira, diqqat, dunyoqarash, salomatlik, sog'lom turmush tarsi, ma'naviy-ahloqiy barkamollik, shaxs, yetuk mutaxassis, ma'rifat madaniyat.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. SHuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so'z, gap, bog'lanishli nutq kabi qismlarni o'z ichiga olgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'rta ta'lim muassasalari, xususan, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ta'limi tuzilmasi va

mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi Qonuniga muvofiq Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi tasdiqlanib, u «milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar, mehnat ko'nikmalari, ijodiy tafakkur, tevarak olamga va kasb tanlashga ongli munosabat negizida fan asoslari bo'yicha tizimli bilimlar olinishini ta'minlash, bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyojni kuchaytirish, tayanch o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish»ga yo'naltirilgan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo'lib, o'quvchi nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. SHuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O'quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda «tilni sezish» shakllanadi.

Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab o'quvchilarni adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki-so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi. 2.1 Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq madaniyati bolaning umuman tilni bilish darajasi bilangina emas, balki adabiy tilni namunali bilishi va undan nutqning og'zaki va yozma ko'rinishlarida namunali foydalana olishi darajasi bilan o'lchanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutqiy tarbiyaning mazmunini o'zaro bog'langan ikki soha tashkil etadi: ona tilini (fonetika, leksika, grammatikani) o'rgatish hamda tilni bilish faoliyatida va muloqotda qo'llash usullari. Tilni egallash atrofdagi olam hodisalari va turli xildagi munosabatlar haqidagi bilimlarning kengaygan taqdirda ro'y beradi. Lekin, tilni va nutqni anglab etish vazifasini bolaning imkoniyati darajasida shakllantirish - maktabgacha katta yoshdagi bola tilini rivojlantirishdagi markaziy bo'g'indir. Tilni egallash atrofdagi olam hodisalari va turli xildagi munosabatlar haqidagi bilimlarning kengaygan taqdirda ro'y beradi. Lekin, tilni va nutqni anglab etish vazifasini bolaning imkoniyati darajasida shakllantirish - maktabgacha katta yoshdagi bola tilini rivojlantirishdagi markaziy bo'g'indir. Tilni qo'llash sohasida uchta bo'g'in ajralib chiqadi: atrofdagilar bilan emotsional aloqalarni yo'lga qo'yish; fikrni ifodalash, axborot-matn tuzishni bilish; sherik bilan nutqiy hamkorlikni yo'lga qo'ya olish. Maktabgacha davrdagi katta yoshda kommunikativ havaskorlik sohasi sifatida tengdoshlar bilan muloqot dastlabki o'ringa chiqadi, unda bola o'zining muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, o'zining tilni bilish va ravon nutqni o'stirish va rivojlantirish borasidagi o'z yutuqlarini amalga oshiradi va sherik bilan hamkorlik qilishni o'rganadi.

M.Koshg'ariyning —Devon-u lug'otit turk asarida —Adab boshi – til maqoli keltirilgan. Bu buyuk ajdodlarimizning inson ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishida tilning nechog'li ahamiyatli ekanligiga urg'u berganini ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, so'z orqali a'yon bo'lishini aytib, nutqning ravon bo'lishiga da'vat etadi: —o'quv va bilimning tilmochi,

tarjimoni tildir. Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro'-e'tiborni ham kishi til orqali topadi. Hech qachon ko'p gapirma. Juda oz so'zla. Tuman so'z tugunini bitta so'z bilan yozib yubor, ya'ni oz so'zlarga ko'proq ma'no singdirish payidan bo'lgan. Ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf Ona tili darsliklaridagi mashq matnlarining tilini, ular yuzasidan ishlab chiqilgan savol-topshiriqlarni tahlil qilish, ularning o'quvchilar nutqini tadrijiy ravishda o'stirib borish imkoniyatiga ega emasligini ko'rsatdi. Ona tili darsliklaridagi barcha mashq matnlari nazariy bilimni mustahkamlash va kengaytirishga yordam bersa-da, O'quvchilar lug'atini boyitish, nutqini o'stirish, tilni amaliy egallashlariga zamin, asos bo'la olmaydi. Mashqlarning bir tizim sifatida mukammallik kasb etmagani, nazariy ma'lumot berishga mo'ljallangan terma to'qima gaplardan tuzilgani, shubhasiz, mashqlarning bog'lanishli nutqni egallashga ijobiy ta'siri kam. Oddiy so'zlashuv nutqi shaklidagi qashshoq matn o'quvchi nutqini boyitish uchun manba bo'la olmaydi. O'quvchilarning o'zbek adabiy tilini egallashlari mashq matnlarining badiiyligiga, til komponentlariga boyligiga bog'liq. Jadidchi olimlarda Mahmudxo'ja Behbudiyning shunday so'zlari bor: "Avval biz musulmon bo'laylik, o'z o'zbek tilimizni bilaylik, ana undan keyin ikkita emas, to'rtta tilni o'rganaylik." Bu til o'rganishga nisbatan sharqona qarashning namunasi bo'lsa, g'arbda ham til o'rganishga nisbatan bir qancha fikrlar mavjud. Y.I. Tixeyeva o'zining ilmiy qarashlarida, bolalarni o'qitishda dastlab o'z ona tilisini o'rgatish, uni mukammal o'zlashtirishini maqsadga muvoffiq deb hisoblaydi.

**XULOSA** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim tizimida o'qituvchilarning nutq madaniyati, ularning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarda tashabbuskor va o'quvchilarga beradigan ma'lumotlarni tushunadigan tarzda yetkazich o'qituvchilarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib xisoblanadi. Nutq madaniyati o'qituvchilar uchun o'qitish va o'qish jarayonida amalga oshiriladigan amaliyotlarni va odatlarni ifodalaydi. Nutq madaniyati o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni kuchaytirish, o'quvchilarning o'zlarini ifodalashlarini oshirish va har bir o'quvchining potentsialini rivojlantirishda muhim ahamiyatni kasb etadi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Xayrullayeva, R. L. (2021). Ona tili darsliklarida o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga samarali yondashilmoqda. Til ta'limining uzviyligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalar muammo va yechimlar, 1(1), 155-158.
2. Khayrullayeva, R. L. (2021). Ways and functions of students speech development. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, 11(12), 389-393.
3. Ф.Р.Қодирова. Р.М Қодирова. «Болалар нутқини ривожлантириш назарияси ва методикаси». Т., «ИСТИҚЛОЛ», 2006.
4. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas'ul muharrir O'zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a'zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.
5. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas'ul muharrir O'zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a'zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b